



**ATMOSFERA IFLOSLANISHINING AHOLI
SALOMATLIGIGA TA'SIRI BORASIDA BAZI MULOHAZALAR**

D.G'.Mo'minov. X.F.Raxmonova
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asrning eng global muammolaridan biri bo'lgan atmosfera ifloslanishi va uning inson salomatligiga ta'siri to'g'risidagi masalalar yoritilgan. Jumaladan, atmosferani ifloslovchi hamda inson salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillar izohlangan. Aholi salomatligini tiklashning ekologik jihatlari yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: atmosfera, ekologiya, tabiiy sharoit, geografik qobiq, qon bosim kasalliklari, nafas olishi tizimi kasalliklari, asab kasalliklari, meteosezgirlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы загрязнения атмосферы, одной из важнейших глобальных проблем XXI века, и её влияние на здоровье человека. В частности, объясняются природные географические факторы, загрязняющие атмосферу и влияющие на здоровье человека. Приводится информация об экологических аспектах восстановления здоровья населения.

Ключевые слова: атмосфера, экология, природные условия, географическая оболочка, заболевания артериального давления, респираторные заболевания, заболевания нервной системы, метеочувствительность.

Annotation: This article examines atmospheric pollution, one of the most important global challenges of the 21st century, and its impact on human health. Specifically, it explains the natural geographic factors that pollute the



atmosphere and affect human health. Information on the environmental aspects of public health restoration is provided.

Keywords: atmosphere, ecology, natural conditions, geographic environment, high blood pressure, respiratory diseases, nervous system diseases, weather sensitivity.

Tabiiy omillarning ta'siri aholi salomatligiga ta'siri qadimdan o'rganilib kelayotgan global mavzulardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, o'zgarib borayotgan iqlim sharoiti, ifloslangan atmosfera va undagi havo holati, sifati buzilgan suv, umumiy qilib aytganda geografik qobiqda doimiy bir biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va bir biriga ta'sir etib turuvchi tabiat komponentlari aholi salomatligiga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillar hisoblanadi. Atmosfera havosining ifloslanishi va uning aholi salomatligiga ta'siri zamonaviy ekologik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu muammoni bartaraf etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun hamda Prezidentning PF-5863-son Farmoni atmosfera havosini muhofaza qilish, ekologik nazoratni kuchaytirish va aholi salomatligini himoya qilishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy huquqiy mexanizmlarini belgilab beradi.

Tabiiy resurslarning, xususan, iqlimning antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi natijasida aholi salomatligiga ta'siri kuchayib bormoqda. Masalan, aholining meteosezgirli (ob-havoning salbiy tomonga keskin o'zgarishlariga sezgirli) tobora o'sib borayotganini sog'liqni saqlash sohasida qayd etilgan dinamik ma'lumotlar tasdiqlamoqda.¹

O'zbekiston viloyatlari bo'yicha geografik va meteorologik ma'lumotlarga ko'ra hududlarning qulayligini aniqroq belgilash uchun tibbiy

¹ Iqlim o'zgarishi va kriosferadagi o'zgarishlar sharoitida aholining meteosezgirli: kasallanish holatlari tahlili va profilaktika yondashuvlari. Tillyaxodjayeva Z.D, Dergacheva I.V. 233-b



statistikani batafsil meteorologik ma'lumotlar (atmosfera bosimi, harorat, namlik, shamol tezligi va boshqalar) bilan birlashtirgan holda kompleks tadqiqotlar o'tkazish muhim sanaladi. Bunday kompleks yondashuv ob-havo anomaliyalari va kasallanish holatlarining o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni aniqlashga imkon beradi. Bu esa ob-havo sharoiti bilan bog'liq kasalliklari bor bo'lgan shaxslar uchun yanada asosli tavsiyalar berish imkoniyatini yaratadi. So'ngi yillarda aholi o'rtasida qon bosimi kasalliklari, nafas olish tizimi bilan bog'liq kasalliklar, asab kasalliklari, oshqozon-ichak kasalliklari, allergik kasalliklar ko'payib bormoqda. Bu holat tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy geografik omillar ta'sirida o'zgarib bormoqda (1-jadval).

1-jadval.

Atmosfera havosini ifloslovchi omillar

№	Ifloslovchi manba turi	Asosiy ifloslantiruvchi moddalar	Ekologik ta'siri	Misollar
1	Sanoat korxonalarini	SO ₂ , NO ₂ , CO ₂ , chang, og'ir metallar	Havoning zaharlanishi, kislotali yomg'irlar, iqlim o'zgarishi	Metallurgiya, kimyo zavodlari
2	Transport vositalari	CO, CO ₂ , NO ₂ , uglevodorodlar	Atmosfera ifloslanishi, smog hosil bo'lishi	Avtomobillar, avtobuslar
3	Energetika tizimi	CO ₂ , SO ₂ , kul, tutun	Issiqxona effekti, global isish	Issiqlik elektr stansiyalari
4	Qishloq xo'jaligi	Metan (CH ₄), ammiak (NH ₃), pestitsidlar	Iqlim o'zgarishi, tuproq va havo ifloslanishi	Chorvachilik, o'g'itlash



5	Maishiy chiqindilar	Tutun, zaharli gazlar, dioksinlar	Havoning zaharlanishi, salomatlikka zarar	Chiqindilarni yoqish
6	Qurilish ishlari	Chang, sement zarrachalari	Nafas olish tizimi kasalliklari	Qurilish maydonlari
7	Tabiiy manbalar	Chang, tutun, vulkan gazlari	Havoning vaqtinchalik ifloslanishi	Chang bo'roni, o'rmon yong'ilari

Aholi salomatligida eng ko'p kuzatilayotgan holat – meteosezgirlikdir. Bu inson organizmining ob-havo va atmosfera omillaridagi o'zgarishlarga (harorat, bosim, namlik, shamol va boshqalar) sezgir reaksiya berish holatidir. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi, atmosfera ifloslanishi va yildan yilga ko'tarilib borayotgan havo harorati natijasida Farg'ona, Andijon, Toshkent va Qoraqalpog'istonda qon bosimi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar salmog'i 2019-2025-yillar davomida sezilarli oshganini ko'rishimiz mumkin (2-jadval). Jadval ma'lumotlariga nazar tashlanadigan bo'lsa, yuqori qon bosimi bilan kasallangan insonlar soni 2019-yilda 225248 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 337000 ga yetgan. 2025-yil ma'lumoti bo'yicha qon bosimi kasalliklari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan hududlar Farg'ona viloyati (48900), Samarqand viloyati (31560) hamda Toshkent viloyati (23590) hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar nafas olish tizimi kasalliklari salmog'da ham kuzatilmoqda. Yuqori qon bosimi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tabiiy sharoitdan kelib chiqqan holda respublikamizning turli viloyatlarida quyidagicha farq qiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar kelib chiqib shun aytish mumkinki, atmosfera ifloslanishi va iqlim o'zgarishi natijasida soni ortib borayotgan qon bosimi kasalliklari eng ko'p Farg'ona viloyati kuzatilmoqda. Viloyat



respublikamiz aholisining 12-13 % ini o'z ichiga olib, aholisi zich, tabiatga nisbatan antropogen ta'sir kuchli hududir. Mos ravishda atmosfera ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan havo sifatining buzilishi va iqlim o'zgarishi qon bosimi kasalliklari yoxud tabiiy omillar bilan bog'liq bo'lgan bu kabi kasalliklarning salmog'i oshishiga sabab bo'lmoqda. Samarqand va Farg'ona viloyatlarida qon bosimi va nafas olish tizimlari kasallik turida doimiy ravishda eng yuqori raqamlarni ko'rib turishimiz mumkin. Bu aholi zichligi, meteorologik sezgirlikni kuchaytirishi yoki ushbu kasalliklarning rivojlanishiga yordam berishi mumkin bo'lgan iqlimiy yoki geografik xususiyatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida aholi zichlining nisbatan pastligi, iqtisodiy-ijtimoiy omillar ta'sirining kamligi sababli aholi o'rtasida bu kabi kasalliklarning nisbatan pastligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston viloyatlari bo'yicha geografik va meteorologik ma'lumotlarga ko'ra hududlarning qulayligini aniqroq belgilash uchun tibbiy statistikasi batafsil meteorologik ma'lumotlar (atmosfera bosimi, harorat, namlik, shamol tezligi va boshqalar) bilan birlashtirgan holda kompleks tadqiqotlar o'tkazish muhim sanaladi. Shu bilan birga tobora rivojlanib borayotgan sanoat, qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlari ta'siriga alohida ahamiyat qaratish talab etiladi. Bunday kompleks yondashuv ob-havo anomaliyalari va kasallanish holatlarining o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni aniqlashga imkon beradi. Bu esa aholi o'rtasida meteorologik sharoit bilan bog'liq kasalliklarni bartaraf etish uchun yanada asosli tavsiyalar berish imkoniyatini yaratadi.

2-jadval.

O'zbekiston hududlari bo'yicha yuqori qon bosimi bilan bog'liq kasalliklar bo'yicha kasallanish dinamikasi. (2019-2025)

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
----------	------	------	------	------	------	------	------



O'zbekiston Respublikasi	225248	233900	242600	251400	260500	269700	33700
Qoraqalpog'iston	12646	13120	13640	14150	14700	15240	15800
Andijon	13936	14480	15060	15640	16230	16820	17430
Buxoro	16047	16650	17310	17980	18650	19320	20000
Jizzax	12508	12980	13490	14010	14560	15120	15680
Qashqadaryo	16403	17020	17680	18360	19050	19740	20460
Navoiy	9659	10020	10410	10820	11240	11660	12100
Namangan	14440	15000	15610	16210	16820	17430	18070
Samarqand	25357	26310	27340	28380	29420	30470	31560
Surxondaryo	13610	14120	14670	15240	15810	16390	17000
Sirdaryo	10507	10910	11330	11760	12190	12630	13090
Toshkent	18913	19630	20410	21190	21980	22760	23590
Farg'ona	39272	40740	42350	43960	45580	47210	48900
Xorazm	19254	19980	20740	21510	22290	23070	23880
Toshkent	27016	28040	29140	30260	31380	32510	33700

Iqlim o'zgarishi va atmosfera ifloslanishining aholi salomatligiga ta'sirini kamaytirish bo'yicha kompleks yondashuv zarur. Buning uchun, eng avvalo, milliy darajada ekologik siyosatni kuchaytirish, chiqindilarni kamaytirish va havoga chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdorini qat'iy nazoratga olish lozim.

Shuningdek, mamlakatimizda ekologik xavfsizlik va aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida sanoat korxonalarida ekologik standartlarni joriy etish va zararli chiqindilarni kamaytirish bo'yicha qat'iy talablar belgilangan. Zamonaviy gaz tozalash uskunalari, filtr tizimlari va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish orqali atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar miqdori bosqichma-bosqich kamaytirib borilmoqda. Bu esa havoning sifatini yaxshilash va aholining sog'lig'ini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, atmosfera ifloslanishini kamaytirish va



Ekologik muhofaza choralari kuchaytirish O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarida ekologik xavfsizlik talablariga mos texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi o'rtasida ekologiya bilan bog'liq bo'lgan turli so'rovnomalar va tadbirlar o'kazib turish, ularni atrof muhitga qilgan „yaxshilik“larni rag'batlantirish yoxud salbiy harakatlariga qarshi choralar ko'rilishini yo'lga qo'yish, mavjud bo'lgan qonunlarni yanada faollashtirish. Ta'lim tizimida tabiatga nisbatan aholi munosabatlarini to'g'riligi haqida bilim beruvchi fan mashg'ulotlarini sifatini oshirish, QVP muassasalarida aholi shikoyat qilib chiqqan kasalliklarni tashxis qo'yish bilan birgalikda ularga tabiiy omillar ham aynan ularda kuzatilayotgan kasallik belgilarida hissasi borligini tushuntrish, bu kasalliklar aslida havo sifatining o'zgarishi, iqlim o'zgarishi kabi omillar natijasida ular bu kabi sog'liklarida o'zgarishlar bo'layotganini tushuntirish. Aholi iloji boricha o'zlari yashayotgan tabiiy sharoitni yaxshi holatda saqlashga, undan zarar bermasdan foydalanishga harakat qilsa kichik bir landshaft hududi holati asrab qolgan bo'ladi. Shuningdek, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida mamlakatimizda qator davlat dasturlari va ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son Farmoni asosida joriy etilgan „Yashil makon“ umummilliy loyihasi doirasida hududlarda ko'klamzorlashtirish ishlarini kengaytirish, yashil hududlar ulushini oshirish hamda atmosfera havosining sifatini yaxshilash orqali aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. „Yashil makon“ loyihasini davom ettirish, cho'llanishga qarshi kurashish va tabiiy ekotizimlarni tiklash ishlari strategik vazifalar sirasiga kiritilgan. Ushbu chora-tadbirlar orqali 2030-yilgacha O'zbekistonning ekologik holatini yaxshilash, iqlim o'zgarishining



salbiy ta'sirini kamaytirish va aholining sog'lom hayot kechirishiga qulay sharoit yaratish rejalashtirilgan².

Xulosa. Geografik qobiqda yuz berayotgan barcha hodisa va jarayonlar bir biri bilan bog'liq. Komponentlar holati va harakatiga binoan tabiiy sharoit shakllanadi va uning ichiga antropogen omil ham qo'shiladi. Inson bevosita komponentlarga ta'sir etar ekan uning natijalari ham albatta insonni chetda qoldirmaydi. Aholi salomatligi holatlari atmosfera holatiga bog'liqligi fasllar almashib ob havo ta'sirida o'zgarib turishida yaqqol namoyon bo'ladi. Biz insonlar o'z tabiiy sharoitimizga bo'lgan munosabatimizni to'g'rlamas ekanmiz atmosfera havosining buzilishi, iqlim o'zgarishi natijasida yuz berayotgan salbiy oqibatlardan qutulmaymiz. Aholi salomatligi, xo'jalik holati yomonlashuvi, yillar davomida moslashgan sharoitimiz, ichayotgan suvimiz, nafas olayotgan havomiz o'zgarib o'zimizning turmush tarzimiz sifatini buzilishiga olib kelamiz. Xulosa qilib aytganda bizni o'rab turgan tabiatga yumshoqroq munosabatda bo'lishimiz va imkoniyatidan ortig'ini talab qilib olishni kamaytrishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida". – Toshkent, 1996 (so'nggi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019-yil 30-oktabrdagi PF–5863-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.

² O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida". – Toshkent, 1996 (so'nggi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).



4. Abdullayev A., Rasulov R. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
5. Asqarov B., To'xtayev N. Tabiiy geografiya va ekologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. Ergashev Sh. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. Mo'minov D.G'. LANDSHAFT VA UN DAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINING HUDUDIIY JI HATLARI (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA). FarDU ilmiy xabarlar i. 2025-yil. 4-son.
8. G'ulomov P., Vahobov H. Atrof-muhit muhofazasi va ekologik xavfsizlik. – Toshkent: Universitet, 2022.
9. Iskandarov I. Atmosfera havosining ifloslanishi va uning inson salomatligiga ta'siri. – Toshkent: Fan, 2018.
10. Karimov A., Xolmatov D. Ekologik monitoring asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2023.
11. Tillyaxodjayeva Z.D, Dergacheva I.V. - Iqlim o'zgarishi va kriosferadagi o'zgarishlar sharoitida aholining meteosezgirli gi: kasallanish holatlari tahlili va profilaktika yondashuvlari.
12. World Health Organization (WHO). Air Pollution and Child Health: Prescribing Clean Air. – Geneva, 2018.